

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**«ELEKTROTEXNIKA VA ISHLAB CHIQARISHDA AXBOROT
KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI» FAKULTETI**

**”AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
KAFEDRASI**

“WEB – DASTURLASH”

fanidan

REFERAT

MAVZU: DREAMWEAVER WEB-MUHARRIRI.

Bajardi:

***14-12 MIAT guruhi talabasi
Najmiddinov Jalol***

Qabul qildi:

Sariyev R.B.

BUXORO – 2016

DREAMWEAVER WEB-MUHARRIRI.


REJA:

1. Dasturning ishchi sohasi
2. HTML - sahifaning tuzilishi (strukturasi)
3. Elementlar, HTML-teglar va xususiyatlar.

Dasturning ishchi sohasi.

Dreamweaver MX dasturini ishga tushirish uchun quyidagi kadamlarni bajarish kerak: **Pusk > Programmy > Macromedia > Macromedia Dreamweaver MX.**

Dasturning ishchi sohasini har qanday foydalanuvchi didiga va tajribasiga mos ravishda sozlab olishi mumkin.



Rasm. 1. Dreamweaver MX dasturining interfeysi.

Ishchi sohaning asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar hisoblanadi:

- **Hujjat oynasi** - tahrirlanayotgan hujjatni ko'rsatadi.
- **Ob`ekt palitrasi** (Insert) - turli xil tipdagi ob`ektlarni (rasmlar, jadvallar, maxsus simvollar va boshqalar) sahifada tezda joylashtirish uchun xizmat qiladigan tugmalarga ega;
 - **Xususiyyatlar palitrasi** (Properties) - belgilangan matn yoki ob`ekt xususiyyatlarini ko'rsatadi va ularni tahrirlash imkonini beradi.
 - **O'zgaruvchan palitralar** (Floating Palettes)- oynalar, inspektorlar va palitralarni umumiy bloka birlashtirish uchun xizmat qiladi.

Hujjat oynasi Dreamweaver MX dasturining asosiy oynasi hisoblanib, unda hujjatni yaratish va tahrirlash jarayonini ko'rish mumkin; Hujjatning brauzer oynasida qanday ko'rinishini taxminiy ko'rsatib turadi; Joriy loyixaga bog'liq bo'lgan turli xil ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

**Ob`ekt palitrasi** jadvallar, rasmlar, katlamlar va boshqa ob`ektlarni tezda joylashtirishga mo'ljallangan tugmalardan tashkil topgan. Ob`ektlar palitrasini ochish\yopish uchun bosh menyudan Window > Insert bo'limini tanlang yoki Ctrl+F2 klavishlar birligini bosing.

Ob`ektlar palitrasi quyidagi bo'limlarga ega:

- **Characters** - maxsus simvollarni sahifaga o'rnatish va simvollarni tanlov asosida o'rnatish imkonini beradi;
- **Common** - rasm, jadval, Flash kliplari, Shockweve, Java apletlari va boshqa ko'p ishlatiladigan ob`ektlar;
- **Forms** - shakllar va boshqarish elementlarini yaratish;
- **Frames** - sahifada ko'p qo'llaniladigan freymmlar tuzilishlarini o'zida saqlaydi;
- **Head** - sahifa sarlavhasi teglari: META, KEYWORDS va Base, Refresh va boshqalar;

Xususiyatlar palitrasi sahifaning belgilangan elementlari xususiyatlarini ko'rish va tahrirlash imkonini beradi. Ob'ektlarni belgilash nafaqat hujjatning asosiy oynasida, balki HTML-kod oynasida ham bajarilishi mumkin.

Xususiyatlar oynasini ko'rish uchun bosh menyudan Window > Properties bo'limini tanlash yoki Ctrl+F3 tugmalarini bosish kerak.

Ko'pgina xususiyat o'zgartirishlari shu vaqtning o'zida ob'ektda qo'llaniladi. (Ayrim xususiyatlarni qo'llash uchun esa sichqoncha tugmasini xususiyatlar palitrasi sohasida bosish kerak.)

Birinchi marta xususiyatlar palitrasida ko'p foydalaniladigan ob'ekt xususiyatlari chiqadi. Qo'shimcha parametrlarini chiqarish uchun esa o'ng tomondan, pastdagi uchburchak belgisini bosish kerak.

HTML-sahifa tuzilishi.

HTML sahifada hujjat sarlavhasi (Head) va tanasini (Body) ajratib ko'rsatish mumkin. Sarlavhada, asosan sahifa to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadi va ularning ko'pchiligi Web-sahifa ko'rinishiga ta'sir kilmaydi. Sarlavhadan tashqari barcha ma'lumotlar sahifa tanasida joylashtiriladi va ekranda ko'rinadi.

Sahifa sarlavhasi va tanasi aniq ketma-ketlikda joylashtiriladigan maxsus teglar bilan aniqlanadi.

Sahifaning HTML-kod tuzilishi.

< HTML>

< Head >

Sahifaning sarlavha bo'limi. Bu erda ishchi ma'lumotlar teglari joylashtiriladi.

</ Head >

< Body>

Bu erda joylashtirilgan barcha ma'lumotlar Web-sahifada akslantiriladi.

</ Body>

</ HTML>

Tuzilishi jihatdan to'g'ri HTML-kod < **HTML**> tegdan boshlanadi. Ochilgan < **Head** > tegi va yopilgan < \bHead > tegi sarlavha bo'limini tashkil etadi. Sarlavha tarkibiga hujjat haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar kiritiladi. HTML-faylning asosiy qismi hujjat tanasidir va u < **Body**> va </ **Body**> teglari yordamida tashkil etiladi. Bu teglar orasida brauzer oynasida ko'rsatiladigan barcha ma'lumotlar joylashtiriladi. HTML-kod yopiladigan </ **HTML**> teg orqali tugallanadi.

Elementlar, HTML-teglar va xususiyatlar (atributlar).

HTML tili elementlar, teglar va xususiyatlarga ajratilgan. Element - ma'lumotlar joylashtirilgan ochiladigan va yopiladigan teglardan tashkil topgan.

Misol: <p align="justify"> Bu oddiy abzats </p>

Bu erda sahifadagi abzats element hisoblanadi.

Teglar nomlar orqali ajratiladi hamda katta va kichik belgisi («<» va «>» simvollarini) orqali ko'rsatiladi. Teg nomi element tarkibidagi ma'lumot ekranda qanday ko'rsatilishini aniqlaydi. Masalan, birinchi misoldagi <p> tegi abzatsni hosil qiladi.

Atributlar teg harakatini aniqlashtiradi. Masalan, align="justify" ushbu abzats uchun ikki tomondan tekislashni o'rnatadi.

Teglardan foydalanish vaqtida quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- Barcha standart teglar «<» simvolidan boshlanadi va «>» simvoli bilan tugaydi. (Masalan, <HTML>)
- Teg nomini tashkil etuvchi simvollar orasida bo'sh joylar (probel) qo'yish mumkin emas. Shuningdek, teg nomi va belgilar orasida ham bo'sh joy qo'yish tavsiya etilmaydi.
- Xar qaysi ochiladigan teg uchun mos ravishda yopiladigan teg ham bo'lishi kerak. Yopiladigan teg bilan ochiladigan teg o'rtasidagi farq uning nomi oldidagi «/» belgisi hisoblanadi. (</HTML>).
- HTML-kodni yaratishda teg nomi uchun faqat quyi registrdagi simvollarini ishlatish.


- Teglarni ajratish uchun, shuningdek birinchi atributni teg nomidan ajratishda bo'sh joy ishlatiladi. Atribut qiymati tarkibidagi bo'sh joylar ham xatoliklarga olib kelishi mumkin.
- HTML-hujjat tuzilishiga e'tibor bering. Asosiy teglarni to'g'ri tartibda va qat'iy ierarxiyada joylashtiring.

Atributlar teg ishini aniqlashtiradi. Ko'pgina teglarda atributlar berilishi shart emas, lekin shunday teglar ham mavjudki, ularda atributlar keltirilishi shart.

<p> va </p> teglari sahifada abzats o'rnatadi. Ochuvchi <p> tegi faqat nomdan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Lekin, zaruriyat tug'ilganda uning tarkibiga ayrim atributlarni qo'shish mumkin. Masalan, <p> tegi tarkibida abzats tekislanishini o'rnatuvchi align atributi keltirilishi mumkin.

Atributlar faqat ochuvchi teg tarkibida bo'lishi mumkin. Yopuvchi teg tarkibida atribut o'rnatishga urinmang. Masalan, ochuvchi teg <p align="justify"> to'g'ri tuzilgan. Unga yopuvchi teg </p> mos keladi. Teg tarkibida bir necha atributlar joylashtirilishi mumkin.

Kupchilik atributlarga qiymat beriladi. Aynan ana shular oxirgi bosqichda teg bajarilish tartibini belgilaydi. Yuqorida keltirilgan align atributiga justify qiymati o'rnatilgan. Atribut qiymati qo'shtirnoqlarda ko'rsatiladi.



Avval juda muhim tushuncha bilan tanishib utamiz.

Lokal Web-sayt - ishlab chiquvchi kompyuterida joylashgan Web-saytning «xaqiqiy» nusxasi hisoblanadi. Tarmoqda undan foydalana olmaymiz; undan faqat muallifgina foydalanishi mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, saytni Internetga joylashtirishdan oldin saytning fayllari kompyuteringiz qattiq diskida bo'lishi shart va bu **lokal** sayt deb ataladi.

Lokal saytning barcha sahifalari diskning aniq katalogi

ichida saqlanadi. Bu katalogni biz saytning **lokal papkasi** yoki oddiy qilib, **sayt papkasi** deb ataymiz.

Lokal Web-saytni aniqlash uchun **Site Definition** oynasidan foydalanamiz. Oyna bosh menyuning (**Site>New Site...**) bo'limi orqali ishga tushiriladi.

Site palitrasi - saytning fayllarini (web-sahifalarni) ko'rish uchun mo'ljallangan. Birinchi ochiladigan ro'yxatda dasturda aniqlangan sayt nomini tanlaysiz. Palitraning asosiy sohasida ushbu saytning barcha fayllari ro'yxati paydo bo'ladi. Ixtiyoriy fayl ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish joriy sahifani hujjat oynasida tahrirlash imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu palitra yordamida saytni Internet tarmog'ida joylashtirish jarayoni ham amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni keyirok kurib chikamiz.

Web-sahifada matnli ma'lumotlarni joylashtirish va formatlash.

Ko'pgina Web-dizaynerlar uchun multimedia ma'lumotlarini tayyorlash ularga zavk bagishlovchi juda ham kizikarli mashgulotdir, lekin Web-sahifaning asosiy komponenti bo'lib matn hisoblanadi. Ko'pgina hollarda foydalanuvchilar qidirayotgan ma'lumot aynan matn ko'rinishda ifodalanadi. Odatda sayt foydalanuvchilari uzlariga kerakli ma'lumotlarni tezda qidirib topishga urinadi va katta hajmdagi axborotlarni o'qishni hohlamaydi.

Matn - **sayt «ovozi»** hisoblanadi va Web-dizayner ushbu «ovoz»ni mo'ljallangan auditoriya eshitishi uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi kerak. Matnning kiska va tushunarli hamda grammatik xatolardan holi bo'lishi juda muhim hisoblanadi.

Buyurtmachi asosan matnli ma'lumotlarni «kulyozma» yoki elektron ko'rinishda etkazib beradi. Lekin bu Web-dizaynerlarni matn ustida ishlashdan ozod kilmaydi. Xususan, Web-sahifani tuzish vaqtida bo'lim va qism bo'limlarga sarlavhalar va shu bilan birga ma'lumotlar hamda qo'shimcha matn ma'lumotlar yaratishga to'g'ri keladi, masalan, haridor «savatini» to'ldirish buyicha ko'rsatmalar. Ba'zan Web-dizayner buyurtmachi bilan birgalikda Web-

sahifa uchun yangi matnlarni yaratishiga yoki mavjud matnni qayta ishlashiga to'g'ri keladi. Ko'pgina Web-dizaynerlar Web-saytga matn yaratish uchun, matnlar tuzishga ixtisoslashgan malakali mutaxassislar xizmatidan foydalanishadi.

1.Dreamweaver MX dasturini ishga tushiring (Pusk/Программы/Macromedia / Macromedia Dreamweaver MX).

2.Dastur ishga tushishi bilan yangi HTML-hujjat hosil bo'ladi. Ob`ektlar palitrasi (Insert) va xususiyatlar paneli (Properties) ni toping.

3.Agar birorta palitra ekranda bo'lmasa, Window menyusidan foydalanib uni ekranga chaqiring.

4.Window menyusidan Insert va Properties punktlari oldidagi belgini olib tashlab, Insert va Properties panellarini yoping.

5.Window menyusidagi Others>History buyrug'ini tanlab, History panelini ekranga chiqaring.

6.Ekranning o'ng qismida bir nechta palitralardan tarkib topgan panel hosil buldi, lekin joriy vaqtda faqat History palitrasi faollashtirilgan holos. Boshqa palitrani faollashtirish uchun sichqoncha tugmasini uning sarlavhasi ustida bosish kerak.

7.Insert va Properties palitralarini ekranga chiqaring. Buning uchun Window menyusidan avval Inserts buyrug'ini, so'ngra Properties buyrug'ini bajaring.

Dreamweaver MX dasturida yangi sayt yaratish tartibi:

1. Site menyusidan NewSite buyrug'ini bajaring.
2. Advanced bo'limiga o'ting. Site Name maydoniga yaratiladigan sayt nomini kiriting. Masalan, My Site.
3. Local Root Folder maydonida sayt papkasini ko'rsatish kerak. Maydon yonidagi papka rasmini sichqoncha yordamida ishlating.
4. Ochilgan muloqot oynasidan sahifa fayllari saqlanadigan papkani tanlang.
5. Papka ro'yxatidan Moi dokumenty papkasini tanlang.

6. Sichqoncha yordamida yangi papka yaratish piktogrammasini ishlatib.

7. Papka nomini kiriting (lotin alifbosi harflari bilan ismingizni kiriting). Enter tugmasini bosing.

8. Yangi papkaga kirish uchun uning ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.

9. Soxranit tugmasini ishlatib. Saytning lokal papkasi tanlandi.

10. HTTP Adress maydoniga hech narsa kiritmang. Enabled Cache dan bayroqchani olib tashlamang.

11. OK tugmasini bosing. Yangi sayt yaratildi.

12. Site (sayt fayllari) oynasini ishga tushirib. Buning uchun Window menyusidan Site palitrasini tanlang.

13. Sayt fayllari bilan ishlash uchun Windows dagi «Provodnik» oynasiga o'xshash oyna ochiladi.

14. Yangi fayl yaratamiz. File menyusidan New File buyrug'ini bosing.

15. Ekranning o'ng qismida yangi HTML-faylning piktogrammasi paydo bo'ladi va uning nomi Untitled 1.htm bo'ladi.

16. Bu nomni index.htm ga o'zgartirib. Buning uchun sichqoncha tugmasini fayl nomi ustida ikki marta bosing.

17. Saytimizning barcha grafik ob'ektlari uchun yangi papka yaratamiz. Buning uchun File menyusidan New Folder buyrug'ini bajaramiz va papkaga Images nomini beramiz.

18. index.htm faylini ochib. Buning uchun Site oynasidagi fayl nomi ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.

19. Bir vaqtda kod va dizaynni ko'rsatuvchi muhitga o'tib. Buning uchun View menyusidan Code and Design buyrug'ini bajaring. Sahifada hech narsa bo'lmasa ham HTML-kod sahifa haqidagi ayrim ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

20. Hujjat oynasidagi yopish tugmasini bosgan holda, HTML-fayl oynasini yoping. Yuqoridan ikkinchi yopish belgisini ishlating, chunki birinchi tugma Dreamweaver dasturi oynasiga tegishlidir.

Sahifa parametrlarini o'rnatish

1. Ishlash uchun saytni faollashtiring. Buning uchun Site palitrasidagi ro'yxatdan saytingiz nomini tanlang.
2. index.htm fayli bilan ishlash uchun uning ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosing.
3. Kirill alifbosidagi harflarning to'g'ri ko'rinishini saqlang. Buning uchun Edit menyusidan Preferendes buyrug'ini tanlang.
4. Fonts bo'limiga o'ting. Buning uchun bo'lim nomi ustida sichqoncha tugmasini bosing.
5. Font Settings ro'yxatidan Cyrillic qiymatini tanlang.
6. New Document kategoriyasiga o'ting.
7. Default Encoding ochiluvchi ro'yxatidan Cyrillic (Windows 1251) ni tanlang.
8. OK tugmasini bosing.
9. Sahifaning ixtiyoriy qismida sichqonchi o'ng tugmasini bosing va hosil bo'lgan kontekst menyusini Page Properties buyrug'ini tanlang.
10. Title maydoniga sahifaning sarlavhasini kiriting (Mening birinchi Web-sahifam).
11. Document Encoding – ochiluvchi ro'yxatdan Cyrillic (Windows 1251) ni tanlang.
12. OK tugmasini bosing.

Matnni formatlash

Mavzuga oid barcha fayllar Source katalogida keltirilgan. (C: /Web design/ Source).

1. Source papkasidan teor5.doc faylini ishga tushiring. Hozir bu hujjatdagi barcha matnli ma'lumotlarni Web-sahifaga ko'chiramiz. Microsoft Word dasturini yopmang. (faylni yopmang).
2. Dreamweaver MX dasturini ishga tushiring.
3. Site palitrasida yuqorida yaratilgan sayt (My Site) nomi tanlanganiga ishonch hosil qiling.
4. Yangi sahifa yarating (File>New...) va uni teor 5.htm nomi bilan xotirada saqlang.
5. Windows muammolar paneli yordamida (Alt+Tab) Word dasturi oynasiga o'ting.
6. Pravka<Videlit vse buyrug'i yordamida barcha matnni belgilang.
7. Pravka>Kopirovat buyrug'i yordamida matnni buferga nusxalang.
8. Dreamweaver MX dasturi oynasiga o'ting. (Alt+Tab)
9. Design muhitida Web-sahifaning boshida kursorni o'rning.
10. Edit>Paste buyrug'i yordamida joriy sahifaga buferdagi matnni o'rning. Web-sahifaga matn o'rnatildi, lekin matn hech qanday formatga ega emas. Boshqa dasturdan nusxalangan matnni Dreamweaver MX mustakil ravishda formatlay olmaydi.

Ushbu sahifa HTML-kodiga e'tibor bering (buning uchun Code and Design muhitini ishga tushiring). O'rnatilgan matnning har bir qatori
 tegi bilan tugagan bo'lib, matnda abzats yo'q. Shuning uchun formatlashni matnni abzatlarga bo'lishdan boshlash kerak.

11. Matndagi abzatlarni aniqlaymiz. Buning uchun quyidagi amallarni bajaramiz. Kursorni abzats o'rnatiladigan joyga keltirib, Enter tugmasini bosamiz va bo'sh qatorni o'chirish uchun Del tugmasi bosiladi.

12. Joriy sahifa matnidagi barcha abzatlarni aniqlang. Ish davomida sahifani xotirada saqlashni esdan chiqarmang. (File>Save)

13. Sahifa boshiga utib, sichqoncha yordamida «Scenarii na storone servera» matnini belgilang va xususiyatlar paneli yordamida ochiluvchi ro'yxat – Format dagi Heading2 qiymatini o'rning.

14. Xuddi shunga o'xshash har bir serverli dasturlash tillari nomlari (Perl, ASP va boshqalar) uchun ham ochiluvchi Format ro'yxatiga Heading3 qiymatini o'rnatish.
15. Shriftni o'rnatuvchi ro'yxatdagi barcha sarlavhalar uchun "Arial, Helvetica..." ni, asosiy matn uchun esa "Verdana..." ni kiriting.
16. Asosiy matn uchun Size – ochiluvchi ro'yxatidagi 3 o'lchamini o'rnatish.
17. Sarlavhalar uchun rangni tanlash uchun mo'ljallangan ochiluvchi ro'yxatdan rang tanlang.
18. Bosh menyudan Modify>Page Properties buyrug'ini bajaring.
19. Hosil bo'lgan muloqot oynasidagi Background maydonida sahifa foni uchun rang tanlang.
20. Text maydonida sahifaning asosiy matni uchun rang tanlang. Rangni tanlash jarayonida Apple tugmasi yordamida oynani yopmasdan rangni o'rnatib, baxolashimiz mumkin. Page Properties oynasida ishni tugallash uchun OK tugmasini bosish.
21. «B» va «I» tugmalari yordamida didingizga qarab, matn ostiga chizishni o'zgartirish.
22. Sarlavhalar tekislanishini o'rtadan va asosiy matn uchun esa ikki tomondan tekislanishni o'rnatish.
23. Sahifani xotirada saqlang. (File>Save).

Adabiyotlar ruyxati.

1. D. Kirsanov. Veb – dizayn. – SPb: Simvol-Plyus, 2001.
2. Mark R. Braun i drugie. Ispolzovanie HTML 4. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
3. Pol Mak-Fedris Ispolzovanie JavaScript. Spetsialnoe izdanie «Vilyams». Moskva – 2002 god.
4. Broydo V.L. Ofis texnikasi. 2002 yil. T.
5. A.R. Maraximov, S.I. Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». Toshkent - 2001.